

**AMR BIN BAHR AL JOHIZ O’RTA ASR ARAB ADABIYOTINING YIRIK  
NAMOYONDASI**

**Djurayeva Feruza Shukurovna**

*Oriental universitet,*

*f.f.d. (PhD), dotsent*

**Mo'minova Mehriniso Habibjon qizi**

*Oriental Universitet lingvistika (arab tili) yo'nalishi 1 kurs magistiri*

O'rta asrlarda ko'p yillar davomida kuchli madaniy yuksalish yuz bergan, xalifalik shaharlarida savdo – sotiq rivojlanib, dorilfunun va kutubxonalariga asos solingan. Fan va madaniyat gullab yashnagan davrda arablar katta ma'naviy qadriyatlar yaratganlar. Ular orasida arab mumtoz adabiyoti, dastlabki o'rirlardan birini egalaydi<sup>123</sup>.

Xususan Abbosiylar davrida ilm – fan va madaniyat rivoj topdi. Abbosiylar madaniyati rivojiga quyidagilar ta'sir ko'rsatdi:

- Asl Arab madaniyati. Uning asosida Quro'ni Karim va u bilan bo'g'liq bo'lgan diniy ilmlar, Arab tili nahv hamda sarf ilmlari rivojlandi.

- Qadimgi Yunon madaniyati. Bu madaniyat sharqqa Iskandar Zulqarnayn davrida kirib kelgan bo'lib, yunonlar sharqda o'z falsafiy yo'nalishlarini tabobat, falakiyat tarqatar edilar.

- Sharq madaniyati. Bu sharqda fath qilingan turklar, fors, hind va Somiy xalqlar madaniyati majmuasidan iborat.

Abbosiylar davri adabiyoti uch davrga bo'linadi.

1. Yangilanish davri (VIII asr o'rtalaridan IX asr boshigacha)
2. Yangilanish davriga qarshi bo'lgan muqobil davr (IX asr boshlarida X asr birinchi choragigacha bo'lgan davr)
3. X asrdan – XIII asrgacha bo'lgan davr Arab adabiyoti, san'ati, ilm – fani madaniyati juda rivojlangan davr hisoblanadi.

Abbosiylar davrida adabiyotning bosh markazi Bog'dod bo'lib, ilm fan rivoj topgan Basra va Kufa shaharlarida fannig turli sohalari arab tili, sarf, nahv uning nazaryasi , adabiyoti va adabiyot nazaryasi kabi ilmlar rivojlandi<sup>124</sup>.

Abu Usmon Amr ibn Bahr ibin Mahbub ibn Fizaro, Basrada al Mahdiy xalifaligi davrida taxminan, 776 yilda Basrada tug'ulib, 868/869 Iroqda vafot etgan Abbosiylar davridagi eng ko'zga ko'ringan adabiyot namoyondalaridan biri hisoblanib uning asarlari hozirgacha arab kutubxonalarida qadrlanib saqlanib kelinmoqda. Uning asl kelib chiqishligiga ixtilof qilingan, ba'zilar uni Kinonna qabilasidan bo'lgan arablardan deyishsa ba'zilar esa uni bobosi Kinonalik kishining ozod qilingan quli habash bo'lgan

<sup>123</sup> Muxlisa Ziyoddinova - Mumtoz arab adabiyoti Toshkent 2012 y 5 b

<sup>124</sup> Sarimsokov A.A – Jahon tarixi(Osiyo va Afrika mamlakatlarining o'rta asrlar tarixi) – Toshken 2021 y 69b

va shuni asos qilib uning asli Habash bo'lgan deyishadi. Olimning "al Hadaqiy", va "al Johiz" kabi kunyalarini bo'lib eng mashuri "Al Johiz" hisoblanadi, u mazkur laqabni ko'zida nuqsoni ya'ni "baqqa ko'z" bo'lganligi sababli olgan. Al Johiz yoshligidan bilimga chanqoq bo'lib, yoshligidan ilm talb qilish yo'lida bo'lgan.

Al Johiz yetimligi hamda kambag'alligi sababli kunduz kunlari non sotar hamda Basradagi kanallardan biri bo'ylab baliq sotar edi. U 20 yoshigacha baliq sotish bilan shug'ullandi, Biroq moliyaviy qiyinchilik bo'lajak olimning doimiy ravishda ilm izlashdan to'xtata olmadi. onasi unga daftarlari to'plaminin sovg'a qilib, uning kelajakda adabiyotshunos olim bo'lishiga va bu yo'nalishda muvafaqiyat qozonishiga ishonch bildirgan<sup>125</sup>.

Abbosiylar xalifaligi davrida kata e'tibor ilm ma'rifatga qaratilganligi sababidan, ilm olishlik hamda kitoblar oddiy xalq uchun ham imkoniyatlar paydo bo'ldi. Jahiz kechalari kitob do'konlariga borib nafsi qodir qilguncha kitob o'qir edi. U arab tili va adabiyotini Abu Ubaydaning "Naqaoizi Jariyr va farzdaq" kitobidan, nahv ilmini al Axwashning asarlaridan hamda Kalom ilmini Ibrohim ibn Sayyor asarlaridan o'rgandi. Shahrining shayxlaridan Quran o'qishlikni hamda boshlang'ich arab tilini o'rgandi, hamda Basradagi bosh masjidda bir guruh yoshlar bilan uchrashib, turli ilmiy mavzularni muhokama qilar edi. Al Johiz Basra mакtabida eng ilimli olimlardan filologiya, lug'atshunoslik va sheriyatni o'rgangan. 25 yillik o'qishi davomida Al Johiz arab sheriyati, arab filologiyasi, islomgacha bo'lgan arab tarixi hamda Quran va hadis bo'yicha kata ilimga ega bo'ldi.

O'z davrining eng bilimli va ma'rifatli hamda keng qamrovli olimlardan biri hisoblangan Johiz, 816 yil Bog'dodga kelib "Donishmandlar uyi"da Xalifa al mounning farzandlariga hamda boshqa tolibi ilmlarga turli ilmlardan dars bera boshlaydi, hamda ilmiy munozaralar o'tkazadi. Ammo uning o'qituvchilik faoliyati, ko'zining "chaqchaygan"ligidan bolar qo'rqliki sababli uzoq davom etmadi. Jahiz o'zini adabiyot sohasida ham sinab ko'ra boshladi, o'z nomi bilan turli asarlar yozdi, hamda u adabiy asarga baho berish va Ibn al-Makaffa yoki Sahl ibn Horun va boshqalar kabi buyuk yozuvchilar qalamiga mansub asarlarni ham ko'rib chiqdi. U "Imomat kitobi"ni yozgach, ko'p o'tmay, Johiz nomi taniladi, xalifa al-Ma'mun allomani o'z yoniga taklif etib, idorasiga mudir etib tayinlaydi. Biroq Johiz bu lavozimda bor-yo'g'i uch kun chidadi va davlat xizmati unga og'ir bo'lgani uchun xalifadan uni ozod qilishni so'radi. Xalifa esa Johizga nisbatan do'stona munosabatini o'zgartirmagan holda iltimosni qondirdi.<sup>126</sup>

Keyinchalik Johiz, Bag'dod va xalifalar yozgi qarorgohi Al-Askarda juda ma'rifatli shaxs - xalifa al-Mutasim (833-842 yillar hukmronligi) vaziri Ibn Zayyat nomi bilan mashhur Muhammad ibn Abd al-Malikning homiyligi va do'stligidan bahramand bo'lib, u bilan har ikki davrda ham muloqot qiladi. Bu davrda Johizning adabiy faoliyat bilan

<sup>125</sup> مجلة دار الآثار الإسلامية ص 5، 2015 م

<sup>126</sup> مجلة دار الآثار الإسلامية ص 7، 2015 م

shug‘ullanishi uchun keng imkoniyat vujudga keladi. Muhammad ibn Abd al-Malik Johizning boshqa yurtlarga ayniqsa Antioxiya va Damashqga sayohat qilish orzu-istaklarini amalga oshirishga yordam berdi. Johiz har yerda sayohat qilib, ilmga bo‘lgan chanqog‘ini qondirar, urf-odatlar, insoniy odatlar, ularning xulq-atvorini kuzatar, o‘rganar, shu bilan birga odamlar va ularning yurtlari haqida bitmas-tuganmas hikoyatlarni tinglardi. Mutaziliya fikrga muxolif bo‘lgan al-Mutavakkil (hukmronligi 847—861) xalifa bo‘lgach, hokimiyat uchun kurashda Ibn Zayyatning azaliy raqibi Qodi Ahmad ibn Abu Dovud hokimiyatni egallab, vazir bo‘ladi. yangi xalifaning buyrug‘i bilan Ibn az-Zayyat hibsga olinib qatl qilinadi. Johiz qatl etilganlarning do‘siti sifatida qochishga majbur bo‘ldi, lekin tez orada yangi vazirning buyrug‘i bilan hibsga olinib, zanjirband qilib uyiga olib ketiladi, biroq qisqa so‘roqdan so‘ng Jahiz afv etilib ozod qilinadi. Keyinchalik Johiz Ibn Abu Dovudning do’stligidan bahramand bo‘lib, bir muncha vaqt o‘tgach, "So‘z san‘ati haqida" asarini vazirga taqdim etadi va buning uchun u besh ming dinor mukofotiga sazovor bo‘ladi<sup>127</sup>.

Al Johiz shoir hamda sherlarni tanqid qiluvch (retsenzt) bo‘lib u sherlarni to‘rt ustunga asoslab ko‘rar edi:

1. Rangba rangligi
2. Lafziy shakli
3. Vazni
4. Tavsifi

Al Johiz o‘xshashlik va kelishuv masalasini ham o‘rganadi va u sherni bir mavzuda qurulishini ma’qullamaydi<sup>128</sup>.

Al Johiz to‘g’risida, zamondoshlari so‘zlariga ko‘ra, u tez fursatda o‘zining ilmiy izlanuvchanligi, mehnatsevarligi bilan katta mavqe va obro‘ga ega bo‘ldi. Al Johiz ko‘plab kitoblar muallifi bo‘lib, xusussan “al buxalaa”, “al hayvan”, “al bayan va tabyin” asarlari hozirga qadar o‘quvchilar tomonidan qarlanib o‘rganiladi.

Hayvonlar kitobi hayvonot ilmi sohasida arab tilida yozilgan birinchi keng qamrovli kitoblardan hisoblanadi. Al-Johizdan oldin bu sohada Asmoiy, Abu Ubayda, Ibn Kalbiy, Ibn Arabiy va As-Sijistoniy kabi olimlar yozgan asarlarning barchasi bir hayvon yoritib berishgan va ular asarlarini tilshunoslik sohasida yo‘naltirilgan, ilmiy emas, Ammo Jahiz Kitab al hayvan asarida til va sheriyatdan tashqari, hayvonlarning tabiatini, ularning instinctlarini, odatlari va sharoitlarini ham tadqiq qilgan. Asar keng qamrovli bo‘lib u o‘z ichiga, arablar va ularning sharoitlari, odatlari, va ilmlari haqida gapirib, Abbosiylar davri madaniyatining ko‘plab tomonlari bilan ko‘zga ko‘ringan manzarasini yoritadi, hamda asarda tabiiy bilim va fiqh masalalari, va xalqlar siyosati hamda odamlarnng atrof-muhitga ta’sirini yoritib bergen.

<sup>127</sup> مجلة دار الآثار الإسلامية ص 9، 2015 س

<sup>128</sup> [https://mawdoo3.com/%D8%A8%D8%AD%D8%AB\\_%D8%B9%D9%86\\_%D8%A7%D9%84%D8%AC%D8%A7%D8%AD%D8%B8#cite\\_note-tvzFIEGIKL-6](https://mawdoo3.com/%D8%A8%D8%AD%D8%AB_%D8%B9%D9%86_%D8%A7%D9%84%D8%AC%D8%A7%D8%AD%D8%B8#cite_note-tvzFIEGIKL-6)

Al Johiz mazkur kitobda hayvonlar olami haqida yozib ularni inson tabiatini bilan taqqoslar edi.

Asarda nodir arab she'riyatidan tanlangan misralar va maqollari hamda latifalarni uchratish mumkin.

Bahillar kitobi — Abu Usmon Amr ibn Bahr al-Johiz shaxsiy muhitida, xususan, Xuroson poytaxti Marv shahrida uchrashgan va tanishgan kishilarning ba'zi bahillarning sifatlari haqida yozgan. Kitobdagi hikoyalari qisqa ta'lif-tarbiyaviy hajviy vaziyatlar bo'lib, unda yozilish davrida aylanib yurgan so'zlashuv iboralari kiritilgan. Asardagi hikoyalarda juda ko'p dialoglar ishlatalig'an.

Al Jahiz hayotligida, arab grammatikasi, zoologiya, she'riyat, lug'atshunoslik, notiqlik kabi turli mavzularda ikki yuzta kitob yozgan ammo uning asarlaridan faqat 30 ta asari saqlanib qolgan. Ta'kidlab o'tish lozimki, Jahiz tilning Grammatik tizimini to'liq qayta ko'rib chiqishni taklif qilgan birinchi arab yozuvchilardan bo'lgan. Johiz umrining qolgan qismini o'zi tug'ilib o'sgan Basra shahrida o'tkazdi. lekin to'shakka mixlanib qolgan bo'lsa ham yozishda davom etdi.<sup>129</sup>

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. Rustamiy S. Balog'at ilmi. – Toshkent: Navro'z, 2020. – 240 b.
2. Sharifov Z. Balog'at fani. – Toshkent: Sharq, 2014. – 234 b.

3. رسائل الجاحظ: محمد هبد السلام هارون، دار الجيل، بيروت 1991
4. الحجزي طه، الجاحظ حياته و أثاره، دار المعرف بمصر، 1969
5. ابن رشيق القيراني ، العمدة في شرح الشعر تمحيصه، دار صادر، بيروت 2003
6. شال بلا – الجاحظ في البصرة و بغداد و سامراء، تر: إبراهيم الكيلاني، ديوان المطبوعات ، الجامعية الجزائر 1985
7. قدوة زاهية – الشعوبية وأثرها الاجتماعي و السياسي في الحياة الإسلامية في العصر العباسي الأول دار الكتاب اللبناني، بيروت، ط 2، 1992 م
8. غريب جورج الجاحظ دراسة عامة، دار الثقافة، بيروت – لبنان 1980 م

<sup>129</sup> الجاحظ حياته و أثاره ص 78